



## O'ZBEKISTONNING QADIM ZIYORATGOH MASKANLARIDAN BIRI BO'LMISH NUROTA SHAHRI TARIXI

*Sa'dullayev S.S.*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** Nurota tog'lari, boy madaniyat, Nuri Buxoro, Narshaxiy, Pirosta devori, Buyuk ipak yo'li, Sayyidato mahallasi, qadimiy shahar.

**Ключевые слова:** Нуратинские горы, богатая культура, Нури Бухара, Наршахи, стена Пиросты, Великий шелковый путь, Саййидато махалле, древний город.

**Key words:** The mountains of Nurota, rich culture, Nuri Bukhara, Narshakhi, the wall of Pirosta, The Great Silk Road, the mahalla of Sayyidato, ancient city.

### **Резюме:**

Hozirgi vaqtda yurtimizda qadim ziyoratgoh shaharlarga tobora e'tibor ortib bormoqda. Shunday ziyoratgoh shaharlardan biri bu Nurota shahridir. Mazkur maqolada Nurota shahri, uning ziyoratgoh joylari va etnografiyasi haqidagi ma'lumotlar tarixiy adabiyotlar hamda manbalar asosida soddaroq tarzda izohlab berilgan. Shahar nomining kelib chiqishi IX – X asrlarda yashagan islom targ'ibotchilaridan biri Shayx Abul Hasan Nuriy(Nur bobo) nomi bilan bevosita bog'liqdir. Nurota so'zi shahar tevarak atrofida istiqomat qiladigan turkiy elatlar hamda har yili shaharga oqib keladigan ko'p sonli sayohatchilar tilida Nurda dafn etilgan otaning ziyoratiga, ya'ni Nurotaga (avliyoga) keldik deya aytilishi natijasida shakllangan va keyinchalik shahar ham Nurota deb atalavergan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Nurota atamasi dastlab shaharning nomi emas, balki muqaddas qabrda dafn etilgan avliyo ota - Shayx Abul Hasan Nuriyning nomi bo'lgan. Keyinchalik shaharning nomi ham Nurota deyilgan. Shahar yurtimiz tarixidagi muhim ziyorat maskanlaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda, uning tevarak-atrofdagi yashagan o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi dasht aholisi uchun iqtisodiy o'rni ham muhim ahamiyatga ega bo'lgandir. Xususan ushbu shahardan Buyuk Ipak Yo'lining ham bir tarmog'i o'tgan. Buning isboti sifatida shaharning g'arbiy qismidagi, taxminan Kushonlar davlati davriga oid Pashshot manzilgohidagi qadim bozor qoldiqlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

### **Резюме:**

В настоящее время в нашей стране возрастает внимание к древним городам-паломническим. Одним из таких городов паломничества является город Нурота. В данной статье в более простом виде на основе исторической литературы и источников излагаются сведения о городе Нурота, его местах паломничества и этнографии. Происхождение названия города напрямую связано с именем шейха Абул Хасана Нури (Нур Баба), одного из проповедников ислама, жившего в IX-X веках. Слово Нурота используется в языке тюркских народов, живущих вокруг города, и многих путешественников, которые каждый год стекаются в город, чтобы навестить отца, похороненного в Нуре, то есть образовалось в результате высказывания

вания о том, что мы пришли к Нуроте (святому), а позже город стал называться и Нуротой. Следует отметить, что термин Нурота изначально был не названием города, а именем святого отца – шейха Абул Хасана Нури, который был похоронен в святой усыпальнице. Позднее название города стало называться Нурота. Помимо того, что город был одним из важных мест паломничества в истории нашей страны, он имел еще и важную экономическую роль для оседлых, кочевых и полукочевых степняков, проживавших вокруг него. В частности, через этот город проходила ветка Великого шелкового пути. В доказательство этого можно указать на остатки древнего рынка в западной части города, на городище Пашшот, примерно периода Кушанского государства.

**Summary:**

At present, the attention of ancient pilgrimage cities is increasing in our country. One such shrine city is the city of Nurota. In this article, information about the city of Nurota, its shrine sites and ethnography is explained in a simpler way based on historical literature and sources. The origin of the city's name is directly related to the name of Sheikh Abul Hasan Nuri (Nur Baba), one of the propagators of Islam who lived in the IXth-Xth centuries. The word Nurota is used in the language of the Turkic people who live around the city and the many travelers who flock to the city every year to visit the father who is buried in Nur, that is, it was formed as a result of saying that we have come to Nurota (the saint), and later the city was also called Nurota. It should be noted that the term Nurota was originally not the name of the city, but the name of the holy father - Sheikh Abul Hasan Nuri, who was buried in the holy tomb. Later the name of the city was called Nurota. In addition to being one of the important places of pilgrimage in the history of our country, the city also had an important economic role for the settled, nomadic and semi-nomadic steppe people who lived around it. In particular, a branch of the Great Silk Road passed through this city. As a proof of this, we can point to the remains of the ancient market in the western part of the city, in the settlement of Pashshot, approximately from the period of the Kushan state.

O‘zbekistondagi qishloq va mahallalar yanada obodonlashib, shaharlar yanada ko‘rkamlashib borayotgan bir sharoitda ularning o‘tmish tarixi va madaniyatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘shunday boy madaniyatga ega hududlardan biri bu Nurota tumanida joylashgan Nurota shahridir.

Nurota tumani hududiy kattaligi jihatidan O‘zbekistonning yirik tumanlaridan biri sanaladi. Uning g‘arbiy qismi tekislik, shimoliy qismi Haydarko‘l, sharqiy qismi esa Nurota tog‘lari va Nurota tekisligi, janubi Oqtov tog‘lari va uning tarmog‘i Qoratorv orqali o‘tgan. Maqolamizning asosiy mavzusi bo‘lmish Nurota shahri o‘ziga xos boy va betakror tabiati, zilol hamda muqaddas buloqlari bilan mashhur. Shu bilan birga shaharning tarixi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Nurota yoki «Nuri Buxoro» nomi bilan tarix sahifalaridan o‘rin olgan mazkur tarixiy shahar haqida Abu Bakr Muhammad Narshaxiy ma‘lumot berib, uni Buxoro tarkibidagi tarixiy joy sifatida qayd etadi[4.20-bet]. Narshaxiy IX-X asrlarda yashab o‘tganligini nazarda tutadigan bo‘lsak va uning bu hudud haqida o‘sha davrda ma‘lumotlar yozib qoldirilganligini hisobga olsak, u holda Nurotaning qadimiyligiga shak-shubha qolmaydi. O‘sha davrda ham bu maskan ziyoratchilar tashrif buyuradigan qadamjo bo‘lgan. Ziyoratgohning



g‘arbiy qismidagi muqaddas chashma va chashmadagi muqaddas hisoblangan baliqlar kishi e‘tiborini o‘ziga tortadi. Narshaxiyning yozishicha, Nurotada jome‘ masjid va rabotlar bo‘lgan. Ziyoratga keluvchilarning asosiy qismi Buxoro aholisi bo‘lgan. Hozirgi vaqtda esa butun respublikamiz hududlaridan ko‘pgina kishilar ziyoratga tashrif buyuradilar. Narshaxiy Nur ziyoratiga borib qaytganlarni hojilar fazilatiga ega bo‘lishi to‘g‘risida ham yozib qoldirgan. Nurning ziyoratgoh bo‘lishi unda muqaddas qadamjolarining mavjudligi bilan bog‘liqdir. Muqaddas buloq va baliqlar, tarixiy obidalar, shuningdek arablar istilosi davrida Movarounnahrda kelib qolgan va shu tuproqda foniylilikdan boqiylikka ketgan hamda Nurda dafn etilgan tobeinlar qabrlari borligi shundan dalolat beradi.

Mahalliy aholining ta‘kidlashicha, o‘tgan asr boshlarida bosqinchi rus askarlarining o‘limiga ham aynan shu baliq iste‘moli sabab bo‘lgan. Ogohlantirishga qaramay, ular «avliyobaliq»dan ovlab yeyishgan va shu zahoti vafot etishgan[1].

Rostan ham bu baliqlarni iste‘mol qilib bo‘lmaydi, chunki ularning ichida qora pardasi bo‘lib, uvildirig‘i zaharli, uni tozalamasdan iste‘mol qilgan odamning terisida dog‘lar paydo bo‘ladi, ko‘proq iste‘mol qilsa, o‘limga olib keladi.

Ta‘kidlash joizki, turli davrlarga oid yozma manbalarda va rivoyatlarda Nurotaning qadimiyligi haqida so‘z yuritilsada, shahar va uning atroflari tarixi ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan. XX asr 50-yillarining boshlarida akademik Ya.G‘.G‘ulomovning qisqa muddatli ilmiy izlanishlari hamda keyinchalik O‘zbekiston FA Arxeologiya institutining ilmiy xodimi O.M.Rostovsev olib borgan tadqiqotlar bu sohaga biroz oydinlik kiritdi. Mening qisqa muddatli Nurota va uning atroflarida olib borgan kuzatuvlarim va surishturuvlarim bu hududda keng ko‘lamdagi tarixiy arxeologik tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Natija va muhokama. Shaharning nomlanishi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Nurota shahri o‘rta asrlarda “Nur”, “Nuri Buxoro” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. O‘rta asrlar muarrixlari Narshaxiy, Juvayniy, Istaxriy asarlarida ko‘hna shahar Nur deb tilga olingan.

Yanada qadimgiroq tarixga, hozirgi Nurota hududlari qadimgi Sug‘d (Sug‘diyona) davlati tarkibiga kirgan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sug‘diyona davlatining chegarasi shimolda esa Nurota tog‘-adirlari bilan chegaralangan bo‘lishi mumkin.

Baqtriya, Xorazm, Marg‘iyona va Sug‘diyona hududlaridan Ahmoniyalar davriga oid sug‘orish inshootlari, xususan korizlarning izlari aniqlangan. Bu yerda korizlardan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Sug‘orilishning koriz usuli miloddan avvalgi VII-IV asrlarda tog‘ oldi tekisliklari va dashtlarida keng foydalanilganiga e‘tibor qaratsak, Nurota atroflari axmoniyalar davridayoq o‘troq aholi tomonidan o‘zlashtirila boshlanganligini kuzatish mumkin.

Nurota qal‘asi shahar devori deb taxmin qilinayotgan Devori Pirosta hamda Nurota atrofidagi Pashshot qal‘asi qoldiqlarida topilgan sopollarning eng qadimgisi milodiy IV-V asrlarga oiddir. Yanada qadimgiroq deb taxmin qilinayotgan sopollar esa qiyosiy o‘rganishni talab etadi. Nurota qal‘asi va uning atrofidagi shahristoni qadimda mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lgan. Bu devor Pirosta devori deb atalgan[5.26-bet]. Mahalliy otaxonlarning aytishlaricha, Pirosta devori juda qalin bo‘lib, uning ustida ikkita arava bemalol yurgan.

Nurota hududidan Buyuk ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tganligi tufayli o‘tmishda harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lib, yirik savdo markazi ham hisoblangan. Nur qal‘asi qadimdan Jizzaxdan so‘ng Buxoro va Samarqand vohasiga kirish uchun ikkinchi darvoza hisoblangan. Nurota Buxoro vohasining shimoldagi chekka shahar bo‘lib, madaniy o‘troq aholi va ko‘chmanchi xalqlar yashaydigan hudud chegarasida joylashgan [6.443-bet].

O‘tmishda nurotaliklar Buyuk ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tgan Pashshot (Nurota shahrining g‘arbiy qismida bo‘lgan. Bugungi kunda savdo rastalarining o‘rni qisman saqlanib qolgan)dagi bozor orqali qorako‘l teri, mayiz, poliz mahsulotlari, marmar buyumlar, qulolchilik namunalari, gilam, bug‘doy va boshqa turli uy-ro‘zg‘or va hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo kilishgan. Savdogarlar esa ularni karvon bilan uzoq - uzoqlarga, o‘zga yurtlarga etganlar. Pashshotdagi bozor rastalarining o‘rni hali ham saqlanib qolgan.

X-XII asrlarda Buxorodan Nurota orqali Shosh va O‘trorga olib borgan yo‘llardan ham izchil foydalanilgan[7.572-bet].

Shuningdek, ... Bu shaharni shimoldagi ko‘chmanchi chorvadorlar egallagan hududlar bilan bog‘lovchi yo‘llar ichida Ko‘ktepa yodgorligi o‘rnidagi shahar hamda Qo‘shrabot va Jo‘sh orqali Nurotaga olib chiquvchi yo‘lning ahamiyatini takidlab o‘tish kerak. Nurota shahriga antik davrda asos solingan bo‘lib, u Zarafshon vohasini Sirdaryoning o‘rta oqimidagi kechuvlar orqali shimoldagi chorvador qabilalar bilan bog‘lovchi yo‘llar chorrahasida joylashganligi bilan ham mintaqadagi aloqa-savdo yo‘llari tizimida katta o‘rin tutgan. Xususan, milodiy era boshlaridan boshlab Markaziy Qozog‘iston dashtlaridan Nurotaga



qo'shilmasidan tarkib topgan va yillar o'tishi mobaynida tarixiy etnogezi jarayonida bir-biri bilan assimilyatsiyaga kirishib, bir-biri bilan qorishib ketgan hozirgi qavmlardir.

Nurota shahrining etnik tarkibi to'g'risida to'xtalib o'tganda turli millat va elat vakillari hamda turli o'zbek urug'lari haqida to'xtalib o'tish joiz deb o'ylaymiz. Bugungi kunda Nurota shahrida istiqomat qilayotgan ayrim urug' va qavmlar haqida to'xtalganda Nurota Sayyid avlodlari to'g'risida to'xtalib o'tish joiz. Ular o'zlarining to'g'ri so'zligi va ilmga tashnaligi va diniy ilmda boshqalardan ustunligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular dastlab Sayyidato mahallasida istiqomad qilishgan va hozirgi kunda shaharning barcha mahallalarida yashaydilar.

Sayyidlar - Muhammad payg'ambar avlodlarining faxriy unvonidir va barcha musulmon mamlakatlarida alohida tabaqa sifatida izzat-hurmatga ega bo'lib xalq orasida doimo alohida mavqega ega bo'lganlar. Sayyidlar deyarli barcha musulmon mamlakatlarida mavjud bo'lib, Eronda ko'p tarqalgan. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda ular "to'ralar" va "eshonlar" (fors-tojikcha "ular") deb ataladi. Qadimgi Nurota aholisining islomni qabul qilishi qanday kechganligi haqida tarixiy manbalarda hozircha biror-bir ma'lumot uchratmadik.

Xalq orasida mashhur bo'lgan islom dinining Nurotadagi rahnamalaridan bo'lmish Muhammad payg'ambar(s.a.v) avlodlari vakillari-zabardast eshonbobo-lar Nusratillaxon, Boboxon, Rajabxon, Amonxon, Lutfillaxon, Madadxon, Abdurasulxon, Mansurxon, Islomxon, Sayyidjon, Atoxon, Halimxon, Eshoni Sudur(Tursunxon), Haydarxon, Muhammadjon, Rajabxon, Ahmadxon, Mo'minxon, Istamxonlarni nurotaliklar nihoyatda izzat hurmat bilan nomlarini tilga oladi. Ahmadjon eshon boboning aytishlaricha, Nurotaga dastlab kelgan eshon bobo Nusratillaxon bo'lib, ul zot Turkistondan kelgan sayyidlardan ekanlar.

Hozirgi Nurota qal'asining shimoliy-g'arb tomonida Nurota sayyidlari qabristoni joy olgan. Unda Mansurxon eshon(1919-yili vafot etgan), u kishining o'g'illari Sayyidxon eshon(1887-1949), Atoxon eshon (1897-1961), Halimxon eshon(1908-1970)larning qabrlari mavjud. Shuningdek, ushbu qabristonda Qodirxon eshon ham dafn etilgan[1].

Vohaning o'troq aholisidan biri bu tojik etnosi hisobladi. Tojiklar Nurota vohasida Nurota tizma tog'ning o'rta va eng baland qismidagi tor daralarida, Nurota shahrida va Oqtog'ning shimolida joylashgan G'azg'on va Dehibaland qishloqlarida kompakt holda joylashganlar. Madaniyati jihatdan Buxoro shahriga yaqin bo'lgan G'azg'on, Dehibaland va Nurota shahri aholisi



Nurota tizma tog‘idagi tojiklarni o‘zlaridan farqlagan holda, ularni “tog‘chi” deb atashgan[6]. Tarixiy va etnologik adabiyotlarda ushbu guruhga nisbatan “nurota tojiklari” atamasi qo‘llaniladi. 1930-yillargacha mazkur hududda tojiklarning o‘ndan ortiq yirik qishloqlari mavjud bo‘lgan. Biroq, o‘sha davrda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan aholini qo‘riq yerlarga ko‘chirish siyosati natijasida ko‘plab tojik qishloqlari deyarli bo‘shab qolgan.

Xulosa. Xullas, bu hududda hali keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish lozimdir. Nurota, shubhasiz O‘zbekistondagi qadimiy shaharlardan biridir. Ushbu fikrni har tomonlama ilmiy asoslash keyingi bo‘lajak tadqiqotlar natijalariga bog‘liq. Nafaqat Nurota shahri, balki Nurota vohasi moddiy madaniyati ham o‘ziga xos rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan moddiy madaniyatlar sirasiga kiradi. Mazkur shahar aholisi turmush tarzi urf odatlari, diniy etiqodi hamda memorchiligida, kundalik turmushida mazkur holatning o‘zining yorqin ifodasini topgan. Nurota haqidagi bunday ta‘rifu e‘tiroflar har bir yurtdoshimiz qalbida cheksiz g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishi tabiiy.

#### Adabiyotlar:

1. Dala ma‘lumotlari. Nurota tumani Nurota shahri Sayyidato mahallasi. 2012 yil.
2. Ismoilzoda Sh. Nurato qissasi. Toshkent.: “Tamaddun”-2010.
3. Мавлонов.Ў. Марказий Осиё қадимги йўллари. Тошкент.: “Академија”-2008.
4. Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси. Тошкент.: “Фан”-1966.
5. Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии. Тошкент.: “Наука”-1966.
6. Ражабов Қ. Салжук /Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.7. -Т.: ЎзМЭ нашриёти, 2004.
7. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi, I kitob. Toshkent: «Donishmand ziyosi»-2021.
8. Сатторов, М. Д. (2020). Экологическое воспитание молодежи в Узбекистане на основе национальных традиций. Россия и мусульманский мир, (3 (317)), 55-59.
9. Sattorov, M., & Ostonov, J. (2023). Tabiatni falsafiy anglash zarurati, va uning o‘ziga xos xususiyatlari. pedagogs, 47(2), 116-120.
10. Суванова, Д. К. (2021). Социально-философский анализ формирования эстетической культуры у молодежи. In История, современное состояние и перспективы инновационного развития науки (pp. 86-88).
11. Suvanova, D., & Karoboyev, S. (2023). The significance of religious values in forming aesthetic culture. Академические исследования в современной науке, 2(26), 103-108.